

Golshtin zotli sigirlarning o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari

F.S.Tashmatov-magistr,

M.K.Narbayeva-q.x.f.n., dotsent, ilmiy rahbar

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyati Narpay tumanida “Agro Goldin Spring” qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida golshtin zotli sigirlar tanasining mutanosib rivojlanganligini baholashda tana o‘lchamlari hamda tana o‘lchamlari asosida hisoblab chiqilgan tana tuzilish indeksleri haqida ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi, qora-ola, golshtin, zot, tana o‘lchamlar, yag‘rin balandligi, ko‘krak chuqurligi, ko‘krak eni, tana tuzilish indeksleri.

Abstract. This article covers information about body size and body structure indices calculated on the basis of body size when assessing the proportional development of the body of Holstein cows in the specialized livestock farm “Agro Goldin Spring” in the Narpai district of the Samarkand region.

Key words: cattle breeding farm, black-and-white Holstein, breed, body dimensions, withers height, chest depth, chest width, body composition indices.

Kirish. Respublikamiz chorvachiligida qoramolchilik yetakchi o‘rinni egallaydi. Chunki ishlab chiqarilayotgan va aholi iste‘molidagi sutni asosiy qismini sigir suti tashkil qiladi. Go‘sh tashkilatida qoramol go‘shini birinchi o‘rinda tutadi. Shuning uchun ham tarmoqni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilib, tashkiliy zootexnikaviy seleksion va iqtisodiy tadbirlar o‘z vaqtida samarali ravishda tashkil etilmoqda.

Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-yanvardagi PQ-4576 sonli “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida” gi qarori chorvachilikning barcha tarmoqlarini barqaror rivojlanishida dasturi amal bo‘lmoqda.

Respublikamiz qoramolchiligida keyingi yillarda naslchilik bazasini mustahkamlash va yuqori mahsuldor podalar yaratish maqsadida qoramolchiligi rivojlangan Yevropa davlatlaridan turli mahsuldorlik yo‘nalishidagi zotlarga mansub qoramollar keltirilmoqda. Bu qoramollar mahsuldorligi bo‘yicha yuqori irsiy salohiyatga ega. Lekin ular bunday mahsuldorligini faqat to‘la qiymatli oziqlantirish va maqbul asrash sharoitlarida yuzaga chiqaradilar.

Bu zotlarni takomillashtirishda nafaqat to‘la qiymatli oziqlantirish, balki seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, ayniqsa, avlodlarining nasl sifati bo‘yicha baholanib, yaxshilovchi nasl toifasiga ega nasldor buqalardan keng foydalanish va podalarda yuqori mahsuldor sigirlarning oilalarini va nasldor buqalarning yuqori mahsuldor podalarini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot uslublari. Zootexniya sohasida hayvonlarning zot, zotdorlik, jinsi, yoshi va mahsuldorlik yo‘nalishlari kesimida o‘tkazilgan har qanday ilmiy tadqiqot ishlarida o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rganish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot ishining tajriba qismi Samarqand viloyati Narpay tumanida “Agro Goldin Spring” qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida amalga oshirildi. Tajriba uchun I-guruhga sof zotli qora-ola, II-guruhga F_1 ($1/2$ qora-ola x $1/2$ golshtin) va III-guruhga F_2 ($1/4$ qora-ola x $3/4$ golshtin) 1-tug‘im sigirlar olingan.

Sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash darajasi alohida amaliy ahamiyat kasb etadi va sigirlardan sutbop podalarda foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Ayniqsa turli genotipga ega sigirlarning o'sishi organizmidagi hujayralarning bo'linishi natijasida, tana massasining ortishi bilan ifodalansa, o'zgaruvchanlik hujayralarning ixtisoslashishi natijasida tana shaklining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Eng asosiysi bu ikki jarayon, yoki ko'rsatkich hayvon organizmining boshqa xo'jalik foydali belgilarining ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqliqda bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. Sigirlarning ekster'erin baholashda tana o'lchamlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuni e'tiborga olgan holda biz ham o'z tajribamizdagi sigirlarning yag'rin balandligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak eni, va pocha aylanasi kabi o'lchamlarni aniqlab guruhlararo farqni hisobladik.

1- jadval ma'lumotlari shuni ko'rish mumkinki laktatsiya davrida III tajriba guruhidagi sigirlarining tanasining rivojlanganlik darajasi bo'yicha I va II tajriba guruhlaridagi sigirlaridan biroz yuqoriroq bo'ldi. Masalan, III tajriba guruhidagi sigirlarining yag'rin balandligi 132,5 sm-ni tashkil etib I va II tajriba guruhlaridagi sigirlarni ko'rsatkichlaridan 5,5 sm ($P>0,99$) yoki 1,92 foiz; 3,4 sm yoki 1,22 foiz; dumg'aza balandligi 5,1 sm yoki 1,5 foiz; 3,0 sm yoki 0,7 foiz; ($P>0,95$) ko'krak eni 3,4 sm yoki 3,41 foiz; 1,2 sm yoki 2.53 foiz; ko'krak aylanasi 3,2 sm ($P>0,95$) yoki 1,41 foiz; 2,6 sm yoki 0,7 foiz; ko'krak chuqurligi 5,1 ($P>0,99$) sm yoki 3,0 foiz; 3,6 sm yoki 2,27 foiz; tananing qiya uzunligi 6,6 sm ($P>0,95$) yoki 1,35 foiz; 5.3 sm yoki 1,04 foiz; orqa do'ng suyak eni 2,5 sm yoki 1,0 foiz; 2,3 sm yoki 0,6 foiz; poycha aylanasi 4,2 sm yoki 1,0 foiz; 2,1 sm yoki 0,5 foiz; yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Sut mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'krak eni, ko'krak aylanasi hamda ko'krak chuqurligi kabi o'lchamlar I va II tajriba guruhlaridagi sigirlarga qaraganda III tajriba guruhidagi sigirlarda biroz yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganligi tadqiqotlarimizda aniqlandi.

1-jadval

Tajribadagi sigirlarning tana o'lchamlari (n=10), sm

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%
Yag'rin balandligi	132,0±0,57	1,63	134,9±0,49	1,41	137,5±0,59	1,67
Dumg'aza balandligi	133,5±0,78	2,22	135,6±0,56	1,58	138,6±0,58	1,62
Ko'krak eni	48,9±0,52	4,16	49,3±0,44	3,46	51,5±0,33	2,58
Ko'krak aylanasi	197,4±0,91	1,72	198,8±0,59	1,10	200,2±0,65	1,22
Ko'krak chuqurligi	72,8±0,58	3,11	75,3±0,44	2,35	77,9±0,42	2,18
Tananing qiya uzunligi	166,8±0,66	1,52	169,3±0,55	1,28	174,0±0,55	1,25
Orqa do'ng suyak eni	55,1±0,67	4,92	57,3±0,36	2,63	59,6±0,23	1,66
Poycha aylanasi	19,2±0,21	4,15	21,3±0,20	3,90	23,4±0,20	3,80

Sigirlar tanasining mutanosib rivojlanganligini baholashda tana o'lchamlari asosida hisoblab chiqilgan tana tuzilish indeksleri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tana tuzilish indeksi bu anotomik-morfologik jihatdan bir-biroviga bog'liq bo'lgan bir o'lchamni nisbatan farq hisobida ifodalanishidir.

2-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indekslarini hisoblaganimizda uzunoyoqlik indeksi 44,3-45,3; cho'zinchoqlik indeksi 125,7-126,5; ko'krak indeksi 65,17-65,85; tos-ko'krak indeksi 94,0-94,2; no'lishganlik indeksi 123,0 -123,1; hamda suyakdorlik indeksi esa 14,5-17,0; % oraliq'ida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Tajriba guruhidagi sigirlarning tana tuzilish indeksleri, %

Indekslar	Guruhlar		
	n-10	n-10	n-10
Uzunoyoqlilik	44,3	44,18	45,3
Cho‘zinchoqlik	125,7	126,0	126,5
Ko‘krak	65,17	65,47	65,85
Tos-ko‘krak	94,0	94,2	94,2
To‘lishganlik	123,0	122,9	123,1
Bo‘ydorlik	183,3	183,5	183,9
Suyakdorlik	14,5	15,7	17,0

O‘rganilgan tana tuzilish indeksleri bo‘yicha guruhlararo keskin farq kuzatilmadi. Barcha tajriba guruhlaridagi sigirlarning tanasi mutanosib, rivojlanganligini ma’lumotlarining tahlili ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, F₂ III-tajriba guruhidagi sigirlarning ko‘krak qafasi, ko‘krak chuqurligi hamda ko‘krak eni yaxshi rivojlangan bo‘lib, ularning tanasi mutanosib, cho‘ziluvchan va sut yo‘nalishiga ixtisoslashganligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sobirov P.S., Kaxarov.A.K., Do‘stqulov S.D. Chorva mollarini urchitish. Toshkent. 2003. 352 b.
2. Maksudov I.M., Jo‘raev J.Y., Amirov Sh.K. Chorvachilik asoslari. Toshkent. 2012. 230 b.
3. Nosirov U.N. va boshqalar. SHaxsiy, yodamchi va dehqon xo‘jaliklarida zoti yaxshilangan mahalliy yosh qoramollarning o‘sinh va rivojlanishi. //Zooveterinariya. 2012. №11. 33-35 b.
4. Egamberdieva, Z. K., & Narbaeva, M. K. (2022). USE OF HYDROPONIC GREEN FODDER IN CATTLE FEEDING.
5. Nortasheva, M., & Narbayeva, M. K. (2022). QORAMOLLARNI PODANI QAYTA TO‘LDIRISH XUSUSIYATLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 605-607.
6. Nayimovich X. J. et al. TAJRIBADAGI XAYVONLARNING KLINIK KO‘RSATKICHLARI //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2023. – C. 198-203.
7. Nomozov H. I., Nortasheva M., Narbayeva M. K. GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARNING HAR 100 KG TIRIK VAZN HISOBIGA SUT MAHSULOTI ISHLAB CHIQRARISH KURSATKICHLARI //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2023. – C. 25-30.